



THE VERB AND ITS CHARACTERISTICS IN PASHTU LANGUAGE

Zafar Normatov

Senior Lecturer

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

Marjona Panoeva

Student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: verb, simple and passive verb, compound verb, auxiliary verb.**Received:** 28.05.23**Accepted:** 30.05.23**Published:** 01.06.23**Abstract:** This article explores the phraseology of the Pashto verb. In particular, the meanings of compound verbs formed with the help of auxiliary verbs *kawəl* and *kedəl* in the Pashto language were analyzed.

PASHTU TILIDA FE'L VA UNING XUSUSIYATLARI

Zafar Normatov

Katta o'qituvchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

Marjona Panoyeva

Talaba

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: fe'l, sodda va yasama fe'l, qo'shma fe'l, ko'makchi fe'l.**Annotatsiya:** Ushbu maqolada pashtu tilidagi fe'l so'z turkumi tadqiq etilgan. Xususan, Pashtu tilida *kawəl* va *kedəl* ko'makchi fe'llari yordamida yasalgan qo'shma fe'llar ma'nolari tahlil qilingan.

ГЛАГОЛ И ЕГО ХАРАКТЕРИСТИКИ В ЯЗЫКЕ ПУШТУ

Зафар Норматов

Старший Преподаватель

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

Маржона Паноева*Студент**Ташкентский государственный университет востоковедения**Ташкент, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: глагол, простой и пассивный глагол, составной глагол, вспомогательный глагол.

Аннотация: В данной статье исследуется фразеология пуштуского глагола. В частности, были проанализированы значения сложных глаголов, образованных с помощью вспомогательных глаголов *kawəl* и *kedəl* в языке пушту.

KIRISH

Fe'l dunyo tilshunosligida faol bo'lgan so'z turkumlaridan biridir. Asosan, ish-harakat va holatni ifodalaydi. Fe'l so'z turkumi uzoq vaqtlardan to bugungi kunga qadar tadqiq etib kelinmoqda. Jumladan, mashhur hind tilshunosi Panini eramizdan avvalgi davrda III-II asrlar yashagan tilshunoslarning grammatika haqidagi fikrlarini o'rgangan. U so'zlarni ot, fe'l va ko'makchi va yuklamalarga ajratgan. Bundan ko'ranadiki, morfologiyaga e'tibor Panini yashagan davrdan boshlangan.

ASOSIY QISM

Yunon faylasufi Platon esa ega vazifasida qo'llanuvchi so'zlar ot, kesim vazifasida qo'llanuvchi so'zlarni esa fe'l turkumiga kirishini ta'kidlaydi.

XI asr allomalaridan Mahmud Qoshg'ariy "Devoni lug'otit turk" asarida, Yusuf Xos Xojib esa "Qutadg'u bilig" asarida fe'l so'z turkumiga oid ma'lumotlar keltirgan, fe'lning barcha shakllari, grammatik kategoriyalari haqida fikrlar jamlangan.

XV asrda ham bu izlanishlar davom etgan. Alisher Navoiy ham fe'l so'z turkumini chuqur tahlil qilgan holda "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida bir qancha ma'lumotlar keltirgan. Ushbu asarida mutafakkir so'zlarni uch turkumga ajratgan: fe'l, ism va harakat nomi (masdar), fe'lning birgalik nisbati tahlil qilingan, mazmuniy sintaksis bo'yicha ilk ma'lumotlar bergan.

Abdurauf Fitratning sof morfologik qarashi uning "Sarf" (Morfologiya) asarida o'z ifodasini topgan. So'zlarni ma'nosiga ko'ra turkumlarga ajratgan: ot, sifat, son, fe'l, olmosh, ko'makchi kabi. Abdurauf Fitrat shu tariqa barcha so'z turkumiga alohida-alohida to'xtalib, uning o'ziga xos jihatini yoritib beradi. Olimning fe'l turkumiga oid qarashlari katta ahamiyatga ega. Uning "Har bir fe'l bir ish bilan uning ishlovchisi hamda bir zamonni bildiradi" tarzida aytilgan fikri tilshunoslik uchun muhimdir. Olim fe'lning zamon grammatik kategoriyasiga, shaxs-son kategoriyasiga, shuningdek, bo'lishli – bo'lishsizlik, o'timli va o'timsizlik, nisbat kabi kategoriyalari haqida o'z fikrlarini bayon qilgan.

Zamonaviy o'zbek tili morfologik ta'limotining rivojlanishda professor A. G'ulomovning ilmiy yondashuvlari va ilmiy faoliyati katta ahamiyatga ega. Professor A. G'ulomov tomonidan "Fe'l" kitobining yaratilishi o'zbek tilshunosligida muhim ahamiyat kasb etdi. Chunki o'zbek tilshunosligi tarixida alohida olingan bir turkumning o'zini yaxlit holda jiddiy tadqiq etish tajribasi shu davrga qadar bu tarzda amalga oshirilmagan edi.

Tilshunos olimlarimizdan yana biri akademik A. Xojiyev o'zbek tilida lisoniy birlikning o'zbekona tabiati va o'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari ustida izlanishlar olib borgan va 30 ga yaqin maqola e'lon qilgan. Olim fe'l so'z turkumining o'rganilishiga ham jiddiy e'tibor qaratgan va buning ustida bir qancha ilmiy izlanishlar olib borgan. Uning "O'zbek tilida fe'l", "O'zbek tilida ko'makchi fe'l", "O'zbek tilida to'liqsiz fe'l" kitoblari fe'l so'z turkumiga qanchalik e'tibor qaratganini bildiradi.

Fe'l haqidagi bunday izlanish va tadqiqotlar dolzarb mavzularni yoritishga xizmat qiladi.

Pashtu tilida ham fe'llar o'zbek tili singari harakat va holatni ifodalaydi. K.A. Lebedov, R. Inomxo'jayev, Z.M. Kalinina, A.L. Gryunberg pashtu tilidagi fe'l so'z turkumini umumiy jihatdan tadqiq etgan bo'lsalar, A. G'aniyev pashtu tilidagi fe'l frazeologizmlari bo'yicha tadqiqot olib borgan. Pushtu tilidagi fe'llar uchun shaxs, tur, zamon, mayl va nisbat grammatik kategoriyalari mavjud. Boshqa tillardan farqli ravishda pashtu tilida jins va son kategoriyasi fe'l so'z turkumiga xos. kelib chiqishiga ko'ra tub va yasama fe'llarga bo'linadi. Tub fe'llarning infinitiv (noaniq) shakllari odatda *əl* bilan, yasama fe'llar esa *edəl* va *awəl* qo'shimchalari bilan tugaydi. Pushtu tilida infinitiv otlashishi ya'ni III shaxs muzakkar jins ko'plik sondagi ot vazifasida kelishi mumkin. U gapda ega, aniqllovchi, to'ldiruvchi, qo'shma ot-kesimning ot qismi bo'lib kelishi mumkin. Ob'ektga bo'lgan munosabatiga ko'ra barcha fe'llar o'timli va o'timsiz fe'llarga bo'linadi. Pushtu tilida vositali to'ldiruvchi talab qilmaydigan, biroq o'timli fe'llar kabi tuslanadigan bir qator fe'llar mavjud: *Mā wuxandəl* 'Men kulib yubordim' va h. Fe'l shakllarini hosil qilishda fe'l o'zaklari (hozirgi va o'tgan zamon), shaxs qo'shimchalari, prefikslar ishtirok etadilar. Hozirgi zamon o'zagining hosil bo'lish usuliga ko'ra barcha fe'llar to'g'ri va noto'g'ri fe'llarga ajraladi. To'g'ri fe'llarda hozirgi zamon o'zagi *əl* qo'shimchasini olib tashlash yo'li bilan yasaladi: *tləl* 'bormoq', 'ketmoq' fe'lining hozirgi zamon o'zagi *ž*, *axistəl* 'olmoq' fe'lining hozirgi zamon o'zagi esa *axl* va h.

Pashtu tilidagi fe'llar nafaqat prefikslar orqali yasaliq qolmasdan, yordamchi fe'llar orqali ham qo'shma fe'l yasash mumkin. Pashtu tilida *kawəl* va *kedəl* fe'llari ishtirokida ancha frazeologik birikmalar qo'llanib, ular muayyan leksik ma'no hosil qiladi. Masalan, *kār kawəl* 'ishlamoq'. Bu kabi holatda *kawəl* mustaqil ravishda qo'llangan. Bunday so'z birikmalarni to'la birikmagan sodda fe'llar bilan adashtirmaslik kerak.

ستاسو خرکت لند دی حکه یی وری کری

‘Sizning harakatingiz qisqa, chunki siz ochsiz’

که مور عقل یوه خبر هم ونه منو بیا هم عقل رانه نه ځي او بد راسره نه کوي

‘Agar biz aqldan biror ma’lumotni ham qabul qilmasak, u holda aql o’tmaydi va bizga zarar yetkazmaydi’

هوبنياران کارنه کوي

‘Aqlli odamlar undan foydalanadilar’

چرت وهي ناپوهان جبل وهي او غرونه سوري کوي

‘Aldagan ahmoqlar tog’larda teshik ochadilar’

جگري وويل لومري په بنوونځي ته مخه کړو

‘Urush, avval maktabga boraylik, dedi’

بیا مور په بل لوري مخه کړو

‘Keyin biz boshqa tomonga burilamiz’

سولي د خپلو فعاليتونو او کارونو تشریح په دې توگه شروع کړه

‘Tinchlik o’z faoliyati va ishlarini shunday tushuntira boshladi’

جگړه د لاس په واسطه بنار ته اشاره کوي

‘Urush qo’li bilan shaharga ishora qildi’

کارونه په پوره يو په بي پري يو پرتله او قضاوت کړي

‘Ishlarni bir-biri bilan to’liq taqqoslang va baholang’

که زه او ته دوستان یوزما او ستا عقل هم دوستي کوي

‘Agar men va sen do’s’t bo’lsak mening va sening aqling ham do’s’tlashadi’

Shuningdek, pashtu tilida fe’ning noaniq shakli bilan leksikalashgan, yagona fe’l shaklini olgan so’z birikmalari ham mavjud: *lā mənʒa tlāl* ‘g’oyib bo’lmoq’, *rāmənʒta kedāl* ‘paydo bo’lmoq’, *lā mənʒa wṛāl* ‘yo’q qilmoq’, “yo’qotmoq”, *lā uhde na watāl* ‘uddasidan chiqmoq’, ‘uddalamoq’ *tār sara kedāl* ‘ro’yobga chiqmoq’, ‘amalga oshmoq’.

Bundan tashqari, *kedāl* ko’makchi fe’li va pashtu tilida infinitiv (noaniq) shakliga ega bo’lmagan ‘bo’lmoq’ fe’l-bog’lovchisi ham ko’makchi fe’llar tarkibiga kiradi.

په دغسي چوپه چوپتيا كي ذوقونه فکرونه مري مخوه کيري

‘Bunday sukunatda lazzatlar va fikrlar o’ladi’

له بارانه د پسرلي گلونه پيدا شوه

‘Yomg’irdan bahor gullari tug’ildi’

له زمکي نه بخار پورته شو

‘Yerdan bug‘ ko‘tarildi’

دی لیدلی او دژوند په کیف نه دي یوه شوي

‘U ko‘rgan va hayot lazzatini tushunmagan edi’

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, pashtu tilida fe‘l so‘z turkumi eng katta so‘z turkumi hisoblanib, sodda, prefiksli va qo‘shma fe‘llarga bo‘linadi. Qo‘shma fe‘llarni hosil qilishda *kavl* va *kedl* fe‘llari eng sermahsul ko‘makchi fe‘llar hisoblanadi. Tadqiqotimiz natijasida 50 ta fe‘l yig‘ildi. *kavl* bilan yasalgan qo‘shma fe‘llar 35 ta, *kedl* bilan yasalgan qo‘shma fe‘llar 15 ta ekanligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mannonov A., Pushtu tili. – T., 2008.
2. O‘rinboyev B., Qurbonov T. O‘zbek tilshunosligi tarixi. – Samarqand: SamDU, 2006.
3. Грюнберг А.Л. Очерк грамматики афганского языка (пашто). – Ленинград, 1987.
4. Замонавий ўзбек тили. I жилд. Морфология. (Муаллифлар жамоаси). – Т.: Мумтоз сўз, 2008.
5. Иномхожаев Р. Язык пашто (продвинутый уровень). – Т., 2017.
6. Калинина З.М. Очерки по лексикологии современного литературного пушту. – М., 1979.
7. Лебедев К.А. Афганистан - язык, литература, этнография. – М., 2003.
8. <https://www.google.fayllar.org>
9. Замонавий ўзбек тили. I жилд. Морфология. (Муаллифлар жамоаси). – Т.: Мумтоз сўз, 2008. – Б. 47.
10. ارواښاد ا. غوره نسر ونه – کابل، ۱۳۷۳. ص ۱۳-۶۴.
11. افی ف. سوله او جگره. – کابل، ۱۳۸۶. – ص. ۳.